

HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING NAZMDA NAMOYON BO'LISHI

Zumrad

Masharipova

Urdu Mustaqil

tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek she'riyatida mifologik obrazlarning paydo bo'lishi, ularning badiiy tafakkurda tutgan o'rni hamda mazmun va shaklga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shoirlarimiz tomonidan qadimiy afsona, rivoyat va miflarga murojaat qilinishi orqali milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg'unlashuvi ochib beriladi. She'riyatda mifologik obrazlar orqali umuminsoniy va ijtimoiy muammolarning badiiy ifodasi, shuningdek, ramziy, metaforik tasvirning kengayish jarayonlari yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy o'zbek shoirlari va shoirlari asarlaridagi mifologik motivlar namunalari tahlil etilib, ulardan samarali foydalanishning poeziyadagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, mifologik obraz, afsona, ramz, metafora, poeziya, motiv, badiiy tafakkur, milliy qadriyat, zamonaviylik

Adabiyotshunoslikda mif va mifologik obrazlar tizimi, mifologik tushunchalar negizida paydo bo'lgan ramziy obrazlar, an'anaviy poetik ramziy obrazlar qirralarini o'rganish, tadqiqotga tortish hamisha muhim sanaladi. Aynan tadqiqotlar jarayonida fikrlar oydinlashadi, badiiy adabiyotimizning poetik mohiyati oshadi. O'zbek adabiyotshunosligida folklor an'analarning shakllanishida miflarning ahamiyatini M.Jo'rayev, U.Hamdam, U.Jo'raqulov, T.Rahmonov, S.Hamdamov kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

H. Ahmedova “Ilohiy fasl” sarlavhali she’rida mifologik obrazni quyidagicha qalamga oladi:

Gulbuta ostida sochlarin tarab,
Guldanmi, oydanmi kelgan parilar,
Junun vodiysida adashgan dilni
Gulxan og‘ushiga chorlab kuylardi.
Parilar ovozin sehridan sarxush,
Jiyda daraxtlari oyni o‘ylardi.

H.Ahmedova tasavvuri teran shoira. O‘z she’rlarida o‘sha tasavvur dunyosi bilan mifologik olamga ham sayohat qiladi. Mifologik olamga intiq bo‘lgan lirik qahramonni yuqoridagi she’rida parilar o‘z olamiga chorlaydi. Jannatda xushbo‘y gullar bo‘lishi mifologik tasavvurlarimizga yot emas. Jannatdan tushgan parilar gul buta ostida sochlarini tarab, lirik qahramonni gulxan og‘ushiga chorlaydilar. Jiyda jannat daraxti. Yer yuzida o‘sgan Jannat daraxti o‘z maskanini qo‘msaydi. Parilar ovozidan sarxush bo‘lib, oyga yani parilar yashaydigan ko‘kka intiladi, lirik qahramon ham jiyda daraxtiga qo‘shilib parilarning harir ko‘ylagini kiyib, parilar mamlakatiga ketishni orzu qiladi:

O‘shanda
Parilar yurtiga ketgim kelardi,
Jiyda daraxtining o‘ylariga ergashib.
Parilar xayolin kiygan ko‘nglimga,
Turardim bir libos kabi yarashib¹.

¹ Ahmedova H. Tiyyamoh.- Toshkent: A.Navoiy NO‘MKN, 121-b.





T.Xo'jayevning "Turk asotirlari"da "Parilar bilan malaklar dunyo ustidagi ko'klar olamida bo'ladilar. Parilar va malaklar ko'klarda, rohat-farog'atda, yoxud beayb insonlar bilan jannatlarda yashaydilar"- degan fikrining namunasini H.Ahmedovaning quyidagi she'rida kuzatganday bo'ldik.

Pari obrazi xalq idealidagi go'zallik olami, tashqi qiyofaning mukammal timsoli. Pari ko'zga nihoyatda kam ko'rinadi. Namoyon bo'lganda esa, insonni aql-u-hushidan mosuvo qiladi. Pari o'zining ijobiy fazilati, insonga xos go'zalligining tasavvuriy tajassumi bo'lishi, barqaror umrga ega bo'lib, aslo o'lmasligi, o'z o'rnida odamlarga yaxshilik qilishi barobarida, ba'zan o'zining salbiy xarakteri bilan ham gavdalanadi. Bu kabi xatti-harakatlar paridagi makkorlik, jodugarlik va bevafoqlik bilan o'lchanadi.

H. Ahmedova folklor ijodining tuganmas xazinasidan oqilona foydalanib, pari timsolini, yani pari obrazini yaratadi:

Yunus baliqlarning ko'zidami ishq,

Parilar dil solgan daryoda ko'nglim.

Garchi havozodman, havodir naslim-

Yer bergan mahdudvash sadoda ko'nglim.²

Xalq og'zaki ijodining nodir namunalaridan biri Yunus pari dostoni. Yunus pari-parilar podshosining qizi. Uning manzili esa daryo emas, Ko'hi Qof tog'i. Parilar istalgan qiyofaga, jumladan, baliq qiyofasiga kiradi. Daryoda suvparilari yashaydi. Lirik qahramonning ko'ngli parilar yashovchi daryoga tushadi.

Pari inson tasavvurining g'oyat latif, nihoyatda mo'jaz nuqtasining mahsulidir. Parilar ertaklarda kaptar, o't, ilon, kampir, kiyik, maymun, odam va

² Ahmedova H. Shafaq ibodati.- Toshkent:Akademnashr, 2011, 15-b

boshqa turli xil qiyofalarda ko'rinadilar. Afsonaviy Eram bog'i, Ko'hi Qof tog'ida yashaydilar. Ularni dahshatli devlar qo'riqlaydi. U qahramon bilan to'qnashuvda sinab ko'rish uchun qiyin shart, topshiriqlar qo'yadi. Shartlarni bajarsa, uning visoliga erishadi, bajara olmasa, o'lim jazosiga hukm etiladi. Shuning uchun ham ertak qahramoni o'zining butun aqli, jismoniy va ma'naviy quvvati, hatto mo'jizaviy kuchini safarbar etib, g'olib kelish uchun intiladi, shartni bajarib unga uylanadi. H. Ahmedovanning kitobxonni mushohadaga chorlovchi navbatdagi she'rida; Lirik qahramon o'z oshig'ini "Susambil shahrining sultoni" - deya ta'riflaydi:

Susambil shahrining sultoni eding,
Parilar zotidan edim, o'ynardim.
Bir tun uchib borgan edim qoshingga
Sevaman, deb aytding, kuyding, qo'ymading.

Shoiraning she'rida "pari" obrazi nihoyatda izchil ishlanganiga guvoh bo'lamiz. Qadimgi tasavvurlarga ko'ra pari olovdan yaratilgan. Uni oddiy ko'z bilan ko'rishning imkoni yo'q. Pari o'zining go'zalligi va latofati bilan odamlarni sehrlab, aqldan ozdirish qudratiga ega. Parilar turli shakl va qiyofalarga kira oladilar. Ular ko'pincha sohibjamol qiz, ayol qiyofasida namoyon bo'ladilar. Behisht bog'i edi, uchib yurardik,
Qayg'udan - kadardan dil forug' edi.
Sen eding, men edim, bir yurak edik,

Osmon yorug' edi, tun yorug' edi³!..

Susambil ham nihoyatda xushmanzara. Shoira o'z oshig'ining oshyonini Susambilga o'xshatadi, unga shu go'shaning sultoni deb ta'rif beradi. Behisht bog'i faqat sokinlik, pokizalik, go'zallik ufurib turgan so'lim bog'. Lirik

³ Ahmedova H. O'sha manba Toshkent:2011.

qahramon o'z oshig'i bilan ana shu so'lim bog'da shirin orzular osmonida parvoz qiladi.

Nazarimizda, parilar mentalitet jihatdan ham farqlanadi. Xususan, o'zbek xalqi tasavvurida pari uzun va qora sochli, nozik qomatli, oppoq harir libosli nazokatli qiz sifatida tasvirlansa, yevropaliklar uni uzun sariq soch, ko'zlarini moviy ekanini tasvirleydilar. Bu kabi tasavvur va talqinlarni har bir xalq o'z didi, mentaliteti jihatidan kelib chiqib baholashi mumkin. Z.Mirzoyevaning quyidagi she'rida sochlari yoyilgan parini tasvirleydi:

Sochlari yoyilgan hurga aylanib,

Tushimda ortidan yig'lab yugurdim.⁴

Inson tasavvurida yaratilgan bu obraz yozma adabiyotda ham qo'llanilib, ma'lum darajada g'oyaviy-badiiy maqsadda ifodalanadi, inson xarakteri, asl qiyofasini tasvirlashda bu obrazdan foydalaniladi. Xalqimizda pari obraziga ayricha e'tiqod bilan qaraladi. Pari xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, doston, ertak, qo'shiq kabi janrlarida asosiy obrazlardan biri hisoblanadi. U o'zining turli xil xususiyat va sifatlariga ega. Pari obrazi uchun yetakchi belgi, "pari" so'zi ta'riflanganda, tilga olinganda xayolimizda gavdalanadigan bosh sifat beqiyos go'zallik, cheksiz latofat.

G.Asqarova she'rlarida ham pari obrazi kuzatiladi:

O'n sakkiz yosh-eng go'zal dunyo,

Pari bo'ldim uning bahrida.

Qo'llarida qilich, gul tutgan

Shahzodam bor uning bag'rida⁵.

⁴ Mirzoyeva Z.Nur kukunlari.-Yangi asr avlodi.Toshkent:2004.7-b.

⁵ Asqarova G.Erkalik imtiyozi.-Toshkent: G'.G'ulom, 2012, 19- b;// O'sha manba, 19- b;// O'sha manba 166.



Shoira “Ertak” sarlavhali she’rida navqiron o‘n sakkiz yoshida parisifat suluv qiz bo‘lganini tasvirlaydi. Ertaklarda qahramonlar parilarga erishish uchun devlar bilan olishadi. Lirik qahramonning shahzodasi o‘n sakkiz yoshida parining shartlaridan o‘tgandir balki. Beixtiyor ijodkorona tasavvurlari orqali qo‘llarida qilich emas, parining vasliga erishish baxtiga musharraf bo‘lish uchun barcha to‘siqlarni yengib kelgan, qo‘llarida gul tutgan shahzodasining oldiga ketadi. Shoiraning go‘zal tasavvurlari davom etadi:

Shundan keyin hur bo‘laman men,
G‘ilmonlarning ko‘zin yoshlayman.
Murodimga yetib, taxtimda,
Malikaday yashab boshlayman⁶.

Hur pari o‘z shahzodasiga yetishgach, malikalarday yashashiga ishonadi. She’r yakunida “tan olmayman uch dunyongni ham, o‘n sakkizda qolaman mangu”,- deb she’riga yakun yasaydi. Biroq vaqt bir joyda to‘xtab turmaydi. O‘n sakkizda qolishning ham sira imkoni yo‘q. Shoira “O‘lan” sarlavhali she’rida ham bu obrazdan foydalanadi:

Pari qizlar holvangni yerlar,
Osh tortarmish mardona sherlar.
Taqdiringdan ko‘rasan, derlar
Yo “ha” degil, yo “yo‘q” de, dilim⁷.

Har bir hududning o‘ziga yarasha urf-odatlar bor. Jumladan, sovchilikka borilganda Samarqand viloyatida kelinnikiga holva olib boriladi. Kelinning dugonalari ham tezroq o‘z baxtini topishlari uchun ularga ham ana shu



holvalardan tarqatiladi. She'rlarida xalqona ohang ufurib turadigan G.Asqarova ijodiy asarlari qatiga o'zi tug'ilib, o'sgan hududning urf - odatlarini ham singdirib boradi. Xalq qo'shiqlarida parilar tushunchasi bilan aloqador irimlar bor. Pari xalq qo'shiqlarida ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi:salbiy tipdagi buzg'unchi, mifologik obraz sifatida. Ushbu tasvir va tushuncha parilarning "Avesto" da tasvirlangan parilarning oltita sifatining barchasiga to'g'ri keladi. Masalan, 1) inson qiyofali; 2) hayvon qiyofali; 3) go'zal; 4) yovuz; 5) jodugar;6) devlarga a'loqador⁸ shu nuqtayi nazar bilan qarasak, qo'shiqlardagi oshiq va ma'shuqalar, orasiga sovuqlik olib kiruvchi pari obrazlari "Avesto" dagi pari tushunchasiga mos keladi. G.Asqarova she'rida pari go'zal qizlar qiyofasida gavdalanadi. G.Asqarovaning nikoh to'yiga a'loqador marosimlar tasvirlangan she'rlarida juda ko'p hollarda pari obrazi tasvirlanadi.

Biz yuqorida tasvirlagan mifologik obrazlar xususidagi xalq qarashlari va tasavvurlari naqadar rang-barang bo'lsa, Xizr obrazining mifologik asoslari va genezisi ham afsona, doston singari xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. "Xizr" obrazi orqali tasavvurimizda ezgulik timsoli bo'lgan fayz - baraka, xotirjamlik ulashuvchi komil inson gavdalanadi. Ma'lumki, xalqimizda hozirgi kunda ham "Xizr" nazari tushgan kishilar haqida har xil qarashlar, fikrlar yuradi. Xalq qarashlariga ko'ra afsonalarda Xizrga yo'liqqan kishi nihoyatda katta omadga, baxtga, boylikka ega bo'ladi deyiladi.

"Xizr" so'zining etimologiyasiga doir turli xil fikrlar mavjud bo'lib, bu mavzuda tadqiqotchi T.Xo'jayev ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim M.Sayidov, B.Sarimsoqov, I.Haqqullarning "Xizr" obrazi uchun xos bo'lgan xususiyat va bu so'zning etimologiyasi xususidagi bahslarni bir joyga to'plab, munozara qiladi.

⁸ Рўзимбоев С, Собирова Н. Авесто мифологияси ва Хоразм фольклори.-Урганч:2001, 24-б.



B.Sarimsoqov “Xizr” so‘zining etimologiyasi olov so‘zi bilan aloqadorligini alohida qayd qilib, ko‘pchilik xalqlarda olovning poklovchi xususiyati haqidagi qadimiy e‘tiqodlarga borib tarqalishini ta’kidlaydi⁹.

T.Xo‘jayev “Xizr” so‘zi etimologik jihatdan yashillikka daxldor degan xulosaga keladi. Xizrni mifologik obraz sifatida yer yuzida, dasht-u-biyobonda, odamlar orasida, folklor asarlari doston, ertak, qo‘shiqlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Xizr folklor asarlarida o‘zining yaxshi sifatlari bilan namoyon bo‘ladi. Xalq afsona va rivoyatlarida Xizr-qiyinchilikka uchragan va uning nomini atab madad tilaga n kishilarga yordam beruvchi, doston yoki ertak qahramonlariga quvvat, katta kuch ato eta oluvchi, asardagi ijobiy obrazlarga pirlik, ustozlik qiluvchi tiriklik suvning sohibi, umrboqiy, nihoyatda kuchli rahmdil bir obraz sifatida talqin etiladi¹⁰.

F.Nurmonov “O‘zbek xalq ertaklarida Xizr obrazining epik talqini” sarlavhali maqolasida V.Bartold, M.Afzalov, I.Goldtsiyer, K.Imomov, Tolstov kabi qator olimlarning Xizr haqidagi fikrlarini keltiradi. Fikrlar orasida mashhur sharqshunos olim V.Bartoldning quyidagi iqtibosi diqqatimizni tortadi: “Xizr to‘g‘risidagi rivoyatlar boshqa diniy mazhabdagi kishilarga ma’lum bo‘lmay, musulmonlar orasida tarqalgan bo‘lishiga qaramasdan, u musulmonlarga xos bo‘lmagan xususiyatlarga egadir. Qur’onda ham Xizrning nomi keltirilmagan. Xizr obrazi orqali turli davr va xalqlarining afsonalari birlashib to‘plangan”. Savol tug‘iladi, islom diniga aloqasi bo‘lmagan Xizr nima uchun boshqa diniy mazhabdagi kishilarga ma’lum bo‘lmay, faqat musulmonlar orasida tarqalishi mumkin bu obrazning musulmonlarga qaysi jihatlari o‘xshamaydi? Tadqiqotchi F.Nurmonov olimlardan keltirgan iqtiboslardagi fikrlar biri ikkinchisini to‘ldirib hammasi Xizrning islomga aloqasi yo‘qligini isbotlashga

⁹ Саримсоқов Б.Ўзбек маросим фолклори.-Тошкент:Фан, 1986, 18-19 б.

¹⁰ Хўжаев Т. XX аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фолклор.-филол.фан.ном.Тошкент:1996, 43-48-б.

xizmat qiladi.

F.Nurmonov bir maqolasida bu haqidagi fikrlarni mustahkamlaydi. “Xususan, V.V.Bartold, Y.E.Bertels, M.Afzalov “Xizr obrazi musulmon diniga qadar yaratilgan, u mehnat ahli ijodiy izlanishlarining juda uzoq davr mobaynidagi mahsuli bo‘lgan”-degan qarashlarni bayon etadilar. Demak, Xizr obrazining musulmon dini bilan aloqasi yo‘q degan fikrni ilgari suradilar.

Tadqiqotchi M. Narziqulova Xizr obrazini bir qancha qirralari bilan talqin qiladi. Olima sharq mifologiyasi talqiniga ko‘ra, “Xizr barq urib unayotgan o‘simliklar, yashillik bahor tabiat olamiga timsol qilinadi”, - deb o‘z fikrini adabiyotshunos olim M.Jo‘rayevning “Xizr badiiy ijodda to‘ni va sallasi yashil, ot mingan qo‘lida uzun nayza mo‘ysafid qiyofasida tasvirlangan” - degan iqtibosi bilan to‘ldiradi.

“Qissasi Rabg‘uziyning “Xizr va Ilyos alayhissalom so‘zlari bobi” quyidagicha boshlanadi: “Xizr ma‘nosi yashil bo‘lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o‘ltursa ul tosh yasharur erdi. Aning uchun Xizr ataldi. Aytmishlar:Qayur yerda o‘ltursa, ul yer ko‘karur erdi. Quyidagi ta‘kidlangan, ya‘ni Bartoldning fikri Qur‘onda Xizr nomi yo‘q degan gap noto‘g‘ri. Zero, Qur‘oni sharifning Kahf surasida Muso va Xizr payg‘ambarlarning qissalari berilgan¹¹. “Bu qissa Muso alayhissalomning ilm yo‘lidagi hokzorliklari, Xizr alayhissalomning boshqa payg‘ambarlarga berilmagan ne‘mat-g‘oyibdan ogohlik ne‘matiga muyassar bo‘lganliklari borasidagi lavhalar bayon etiladi”¹² - deb izoh beradi Shayx Alouddin Mansur.

Sh.Turdimov “Go‘ro‘g‘li” turkumida Xizr obrazi” maqolasida xalqimizning islomga qadar bo‘lgan mifologik tizimida” Xizr eng yuqori maqomdagi o‘t, olov, quyosh bilan bog‘liq, yozni olib keluvchi, butun tabiatni, hayotni jonlantiruvchi,

¹¹ Қуръони Карим.Ўзбекистон изоҳли таржима. Таржим ва изоҳлар муаллифи.Шайх Алоуддин Мансур.Тошкент:2004. 334-337 б.

¹²Қуръони Карим.Ўша манба. 326-б.



ularga tiriklik beruvchi ezgu ruh sifatida topinilgan”¹³ - deydi . Mazkur maqolada Xizrning islom bilan aloqasi ham batafsil yoritilgan.

Hozirgi o‘zbek she’riyatida ham Xizr obrazi uchraydi. Xalqimizda tabarruk Ramazon oyining “Laylat ul qadr” kechasida Xizr kelishi haqida qarashlar bor. Uning tashrifini ertalabga qadar uxlamasdan kutish odat tusiga kirib qolgan. Keksalarning “Xizr ozoda, toza joyga keladi”- degan qarashlariga binoan uy va hovlilarni saramjon-sarishta qiladilar. O.Hojiyevaning “Bolalik bog‘idan fasonasi” da ham Xizr obrazi orqali yuqorida qayd etganimiz kabi Xizr tashrifini intiqlik bilan kutgan qizchanning hayotiy kechinmalari tasvirlanadi:

Qalandarning liboslari,
Sirli soz ham bo‘ldi nihon.
Darvozda turar g‘arib
Bir bechora juldur chopon.
Oyoqyalang, yoqasi chok,
Boshda telpak yag‘ir-yarg‘oq.
Ko‘zlarida bechoralig‘,
Qo‘llarida irg‘ay tayoq.

Xalq tasavvurlariga ko‘ra Xizr har xil qiyofalarda insonlarga ko‘rinadigan mushkul ahvolda qolganlarga yordam beruvchi pir obrazi. Xullas, Xizr obrazi xalq ijodida ham, yozma adabiyotda ham ezgulik timsoli sifatida tasvirlanadi. Binobarin Xizr obrazi bilan bog‘liq tasviriy ifodalar mumtoz she’riyatimizda ham ko‘p uchraydi. Mumtoz she’riyatda Xizr obraziga xos bo‘lgan



barhayotlik, tiriklik ramzi, ma'shuqa labi va boshqa a'zolariga qiyos etiladi. O. Hojiyevaning she'ri davom etadi:

Qizcha nogoh seskandi-yu
Ko'zlariga inonmadi:
Zar kiyimli qo'shiqchi shu
Yirtiq to'nli insonmidi?
Yer yutdimi? Yutdi osmon?
Chinmidi bu, yoki ro'yo?
Qizcha yig'lar hayron-hayron,
Hiqqillardi: - Xizr bobo!¹⁴

Shoiraning lirik qahramoniga Xizr juldur chopon, yirtiq to'n, eski telpak kiygan, oyoqyalang, qo'llarida tayoq tutgan Qalandar qiyofasida ko'rinadi va bexosdan g'oyib bo'ladi.

Z.Mo'minova bisotida ijtimoiy mavzu qalamga olingan ijodiy asarlari talaygina. Jumladan, "BMT da yangrar Navoiy tili" mavzusidagi she'rida shukronalik tuyg'ulari ifodalanadi. Asrlar osha sayqallanib kelayotgan nodir tilimizga hazrati Xizr ravo bo'lishini tilash orqali o'z orzu - intilishlarini namoyon qilmoqda. "Dunyo turguncha tur!" xalq olqishini qo'llash barobarida analitik folklorizmni yuzaga keltirmoqda.

Toshlarni sindirib yorib chiqqan nur,
Senga ravo bo'lsin hazrati Xizr,
Dunyo turguncha tur! Dunyo turguncha tur!

¹⁴ Hojiyeva O.Tanlangana sarlar.-Toshkent: 2022, 58-b.



BMTda yangrar Navoiy tili¹⁵.

Shoira ijtimoiy mavzudagi she'rlarda ham mifologik obrazlardan mahorat bilan foydalanadi.

Ma'lumki, shayton diniy-mifologik obraz bo'lib, u odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdiradi. H. Ahmedova "Yolg'on qasida" sarlavhali she'rida shayton obrazini keltiradi:

Qushlar so'lagidan etilgan paydo,
Makring olovidan ko'r barcha qaroq.
Tund yaproqlar ichra yasharsan tokay,
Shayton peshobidan iylangan tuproq¹⁶.

Shayton insonlarni o'zining harom yo'llariga boshlaydi. Barcha dinlar shaytonni insonlarni yo'ldan uruvchi sifatida qoralaydi. Lirik qahramon ham shaytonning makriga uchgan insonlarni "Makring olovidan ko'r barcha qaroq" tarzida ifodalaydi. Tund o'z domiga tortayotganini ta'kidlaydi.

Ko'zi ochiq ko'rmasdan,
Shayton yo'ldan urmasdan,
Otadan yuz burmasdan
Bolaga kitob bering¹⁷!

Diniy manbalarda qayd qilinishicha, Odam Ato bilan Momo Havoning gunoh qilishiga ham aynan shayton sababchi bo'lib, Olloh ularni jannatdan quvg'in qiladi. Ammo shayton haqida boshqa bir qarashlar ham bor. Masalan, I.Haqqul

¹⁵ Mo'minova Z, Bolaga kitob bering.-Toshkent:2022, Akademnashr,2022, 7-b;// O'sha manba 4-b.

¹⁶ Ahmedova H. Shafaq ibodati.-Toshkent: 118-b.



tasavvuf adabiyotida shayton obrazining butunlay yangi talqinini boshlab bergani, ya'ni iblisni "do'stim va ustozim"- deb olqishlagani borasida ma'lumotlar beradi. Xalloyning iblisni ustoz deb tan olishiga sabab-Iblisdagi maqsad ulug'ligi va qat'iyat, do'stlikka sodiq bo'la olishi, u o'z imkoniyatlariga tayanib ish ko'radi. Diniy manbalarda qayd qilinishicha, iztirob va kurashuvchanlik kabi xususiyatlar, shuningdek, iblis Ollohgga oshiqqligini va ishq yo'lidan aslo qaytmasligini sobitlik bilan namoyon etadi. "Haq deydi: "Seni abadul abad azobga giriftor eturman". Iblis aytdi: "Azobga giriftor aylash asnosida meni ko'rasanmi?" Haq dedi: "Albatta". Iblis javob berdi: "Meni ko'rishing, menga qarashing, azob-uqubatlaring ham kifoyadir. Demak, Shayton Olloh e'tibori uchun beadam azoblarga rozi. Darhaqiqat, inson hamisha ham o'z aybini tan olmaydi. Aybdorlik hisini ich-ichidan sezib tursa-da, nafaqat o'zini-o'zi, boshqalarni ham aldashga urinadi. Aybdan soqit bo'lish uchun aybdorlikka boshqa da'vogar yo'q paytlari shaytondan foydalanadi. Z.Mo'minova ijtimoiy tarmoqlarning bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganidan kuyunadi. Bola ma'naviyatini boyituvchi yagona xazina bu kitob. Aynan shuning uchun ham bolajonlarimizning kitob o'qishini orzu qiladi. Serqirra ijod asarlari bilan kitob o'qishga, o'qitishga chorlaydi.